

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ELEKTRON XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH

Bun'et Muratovich Abduraimov

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida elektron xizmatlarning rivojlanishi sur'ati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, sanoat korxonalarini, raqamli korxonalar, xalqaro sifat tizimi, raqamli transformatsiya

ABSTRACT

The article examines the pace and factors affecting the development of electronic services at industrial enterprises in the context of the development of the digital economy in Uzbekistan.

Keywords: digitalization, industrial enterprises, digital enterprise, international quality system, digital transformation.

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarida faoliyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi, birinchi navbatda menejment-boshqaruvi tizimida global o'zgarishlar ro'y bermoqda, bu esa umumiy olganda sifat menejmenti tizimini modernizatsiya qilishni istisno etmaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish barcha biznes jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi, boshqaruvda "additiv"- "yangidan-yangi zamonaviy" usullardan foydalanish o'z navbatida jarayonlarning murakkabligini sezilarli darajada kamaytiradi va ularning sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya nafaqat jarayonlarni boshqarish texnikasi va texnologiyasidagi o'zgarishlarni, balki raqamli fikrlashga asoslangan yangi raqamli madaniyatni shakllantirish zarurligini ham anglatadi, bu esa o'z navbatida inson kapitalini boshqarish yondashuvlarining o'zgarishi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish sharoitida sifat menejmenti tizimini innovatsion rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



- soxaga doir me'yoriy-texnik hujjatlarga asoslangan xolda belgilangan yo'nalishlarda monitoring va nazorat o'tkazish orqali sifatni doimiy ravishda yaxshilab borish;
- raqamli fikrlash va xodimlarni raqamli jalb qilish asosida raqamli madaniyatni shakllantirish;
- axborot texnologiyalari va yangi usullarni qo'llash asosida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish jarayon sifatini boshqarish;
- xodimlarni axborot texnologiyalaridan foydalanishda uzluksiz o'qitish va "raqamli kompetensiya"larni rivojlantirish orqali yangi kadrlar salohiyatini shakllantirish;
- sifat menejmenti tizimining faoliyatini tartibga soluvchi elektron hujjat aylanishi asosida yagona axborot maydonini yaratish.

Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonining amalda qo'llanilishi sanoat korxonalarini rivojlantirishning yangi bosqichiga xamda texnologik yondashuv talablarini hisobga olgan holda sifat menejmentida jarayonlarni tarmoqlar kesimida raqamli boshqaruvga o'tishiga yordam beradi. Boshqaruv jarayonlarida raqamli modernizatsiyaning qo'llanilishi, sifat menejmenti tizimining innovatsion rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugunki kunda raqamli dunyo asta-sekin har bir xonadonga, maxalla va jamiyatga, shuningdek, barcha davlat va tijorat tashkilotlariga, qolaversa inson xayotiga kirib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatimiz turmush tarziga, iqtisodiyotimizga misli ko'rilmagan ta'sir ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston respublikasida 2021 – 2022 yillardagi "Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish" hajmi tahlil qilingan. (1-jadval).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 2021 – 2022 yillarda "Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish" hajmi dinamik tarzda o'zgargan (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2021 yilda sanoat mahsuloti hajmi jami: 2685832 mlrd.so'mni, shu jumladan, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 261442 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoat 2212352 mlrd.so'mni, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 193018mlrd.so'mni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish 19018 mlrd.so'mni tashkil bo'lsa, 2021 yilda esa jami 3317171 mlrd.so'mni, shu jumladan, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 326127 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoat 2740401 mlrd.so'mni, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni



konditsiyalash 233036 mlrd.so'mni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 17604 mlrd.so'mni tashkil qildi, ya'ni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 24%ga oshgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarni sanoat sohasiga joriy qilinishi mamlakat ravnaqiga kelgusida katta hissa qo'shadi.

(1-jadval)


**Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish/
Manufacture of industrial products by type of economic activity**

mlrd. so'm / billion soums

| Ko'rsatkichlar | Indicators | 2021 yil | 2022 yil |
|--|--|---------------------|---------------------|
| Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm | Volume of industrial production, billion soums | 2 685 832,11 | 3 317 171,13 |
| Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Mining and quarrying | 261 442,56 | 326 127,77 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | Manufacturing industry | 2 212 352,21 | 2 740 401,91 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of food products | 294 106,29 | 348 799,36 |
| Ichimliklar ishlab chiqarish | Beverage production | 59 235,96 | 91 737,26 |
| Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of tobacco products | 12 798,75 | 17 831,10 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of textiles | 304 290,59 | 380 827,79 |
| Kiyim ishlab chiqarish | Manufacture of wearing apparel | 77 352,08 | 94 963,92 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | Manufacture of leather and related products | 11 500,51 | 12 658,57 |
| Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish | Manufacture of wooden and cork products, (except furniture), products made of straw and plaiting materials | 12 388,73 | 14 492,12 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of paper and paper products | 14 970,34 | 23 692,01 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | Printing and Playback of Recorded Materials | 8 051,15 | 13 970,51 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of coke and refined petroleum products | 67 465,93 | 82 369,53 |

| | | | |
|---|--|-------------------|-------------------|
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | Manufacture of chemical products | 167 817,07 | 204 172,78 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | Manufacture of basic pharmaceutical products and preparations | 19 717,04 | 23 864,18 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | Manufacture of rubber and plastic products | 42 079,59 | 50 204,46 |
| Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | Manufacture of other non-metallic mineral products | 117 400,49 | 125 145,62 |
| Metallurgiya sanoati | Metallurgical industry | 600 282,36 | 689 860,62 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | Manufacture of fabricated metal products, except machinery and equipment | 58 282,73 | 67 189,98 |
| Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | Manufacture of computers, electronic and optical products | 38 327,21 | 35 115,85 |
| Elektr uskunalari ishlab chiqarish | Manufacture of electrical equipment | 61 563,81 | 76 596,74 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish | Manufacture of machinery and equipment, not elsewhere classified | 23 409,10 | 33 242,94 |
| Avtotransport vositalari, treylar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | Manufacture of motor vehicles, trailers and semi-trailers | 177 722,75 | 304 073,80 |
| Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish | Manufacture of other transport equipment | 6 782,33 | 8 545,68 |
| Mebel ishlab chiqarish | Furniture manufacture | 15 425,17 | 17 533,61 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | Manufacture of other finished products | 10 802,73 | 12 598,38 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish | Repair and installation of machinery and equipment | 10 579,46 | 10 915,11 |
| Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | Power supply, gas, steam and air conditioning | 193 018,69 | 233 036,75 |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilitatsiya qilish | Water supply, sewerage, collection and recycling of waste | 19 018,57 | 17 604,77 |

(1-rasm)



Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda «smart» aqlli texnologiyalarning qo'llanilishi xech kimga sir emas albatta. So'nggi yillarda sanoat korxonalarining raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi. Qeskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga o'z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak .

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bu mahsulotlarni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarilishi xisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi, buning uchun albatta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida bir maromda sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib borishga to'g'ri keladi.

Agar boshqaruvchi-menejerlar sifatga hayot tarzi sifatida qarashmasa, sifatni yaxshilashga bo'lgan xarakatlarni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Aynan shuning uchun mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha ishlar boshliqdan tortib ijrochigacha bo'lgan barcha personal-xodimlar uchun eng muhim faoliyat bo'lib xisoblanadi.

Raqamli korxonalar (Digital Enterprise)-bu axborot texnologiyalaridan (IT-information technology) o'z faoliyatining barcha sohalarida: ishlab chiqarish, biznes jarayonlari, marketing va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanadigan tashkilot. Bunda an'anaviy tarzda faoliyat yuritib kelayotgan tashkilotlar raqamli transformatsiya yo'lidan o'tib, "raqamli fikrlash" qobiliyatiga ega kompaniyaga aylanmoqda.

Bunday korxonalar tomonidan bozorga taklif etilayotgan mahsulotning o'zi ham "raqamlashtirilgan" bo'ladi. Shunga ko'ra, biznes va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tobora zarur bo'lib bormoqda. Hujjatlar oqimini kuzatish, me'yoriy-texnik hujjatlarni boshqarish kabi jarayonlar korxonaning xususiyatlariga va u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning hayotiy sikliga qarab sanoat korxonasi raqamlashtirish jarayonining bir qismiga aylanib boradi. Sifat menejmenti raqamli korxonaning ichki jarayonini o'rganganligi sababli, korxonaning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish sifat menejmenti tizimini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Shu munosabat bilan sanoat inqilobini boshdan kechirayotgan zamonaviy iqtisodiyotda sifat menejmenti tizimlarining samaradorligini hisobga olish kerak.

XULOSA

Axborot texnologiyalari mutaxassislari va sifatli mutaxassislarning vazifalari nafaqat bir-biriga mos keladi, balki kundalik ishlarida bir-birini to'ldiradi. Bu, ayniqsa, korxonalarda axborot tizimlari va texnologiyalarini qayta tashkil etish yoki kompleks joriy etish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bunday muammolarni hal qilishning asosiy bosqichi ishlab chiqarish bosqichlarini tavsiflash bo'lib, keyinchalik tashkilotning sifat menejmenti tizimining asosini tashkil etadi. Bunday jarayonlar va ishlab chiqarish bosqichlari tashkilotning asosidir. Qoida tariqasida, tashqi muhit o'zgarganda, bu jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish vositalari o'zgaradi va jarayonlarning o'zi o'zgarmaydi yoki ahamiyatsiz o'zgaradi.

Shunday qilib, xulosa tariqasida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan mehnat unumdorligi, uning sifati, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlarning sifati tegishli o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar nafaqat alohida jarayonlarning, balki umuman korxonaning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.



REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarori
2. Саликов Ю.А. Совершенствование организации процессов производства в условиях инновационного развития системы менеджмента качества [Текст]: / Ю.А. Саликов, И.В. Каблашова // Вестник Воронежского государственного университета инженерных технологий. 2016. - № 4 (70). - С. 488.
3. Управление финансами промышленности: учебное пособие/ В.М. Семенов, Н.В. Василенкова. – М.: Финансы и статистика; ИНФРА – М, 2010.- 320с.
4. Вдовин, С.М. Система менеджмента качества организации: Учебное пособие / С.М. Вдовин, Т.А. Салимова, Л.И. Бирюкова. - М.: Инфра-М, 2018. – С.58.
5. Василенкова Н.В. «Повышение качества электронных услуг в условиях цифровой экономики», Международная научно-практическая конференция. 2021. -83с.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021 – 2022 уу. Ma'lumotlari. // <https://www.stat.uz>

